



BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING UZLUKSIZ PEDAGOGIK AMALIYOTINI TASHKIL YO'LLARI

Abdujabborova Sabina Kurbonali qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha va boshlang'ich talimda jismoniy tarbiya va sporti
yo'nalish 2-bosqich talabasi
sabinakurbanaliyevna@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7869985>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-april 2023 yil
Ma'qullandi: 24-april 2023 yil
Nashr qilindi: 27-april 2023 yil

KEY WORDS

o'qituvchi, uzluksiz, uzviylik, tarbiya, ta'lim, pedagogik amaliyot, tahlil, jarayon, xorijiy.

ABSTRACT

Mazkur maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining uzluksiz pedagogik amaliyotini tashkil yo'llari etish muammosi holatini tahlili keltirilgan bo'lib, unda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida uzluksiz pedagogik amaliyotni tashkil etish parametrlari ko'rib chiqilgan.

Respublikamizda ijtimoiy – iqtisodiy siyosiy-ma'naviy va madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'limini vakadrlar tayyorlash tizimini tubdan yangilash va rivojlantirishni talab etadi. Shu boisdan ta'lim tizimini zamon talablari darajasida va erishilgan tajribalar asosida rivojlantirish orqali o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan har tomonlama yetuk va yuksak ma'naviyatli komil insonlar etib tarbiyalash davlatimizning ustivor yo'nalishlaridan xisoblanadi.

Uzluksiz kasbiy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya mutaxassisini uzluksiz kasbiy tayyorlash bir qismi sifatida har bir bosqichda nazariy bilimlarni o'zlashtirish va ulardan amaliy faoliyatda foydalanish darajasi ko'rsatkichi hisoblanib pedagogik amaliyot muhim o'rin egallaydi[2].

Bevosita jismoniy tarbiya sohasi bo'yicha T.S.Usmonxudjaev, F.Xo'jaev, L.Seytlina, I.A.Koshbaxtieva, M.B.Saparbaev, A.Abdiev, J.E.Yusupovlarning tadqiqotlarida malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimining turli muammolari tadqiq etilgan bo'lib, bu manbalar avvalgi davr ta'lim tajribalarini tahlil qilish, oliy, kasb-hunar hamda umumiy o'rta ta'lim maktabining ko'p pog'onali tuzilishi uchun metodologik asos, pedagogik shart-sharoitlar yuzaga kelganligidan dalolat beradi.

Ta'lim sohasida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida umuminsoniy qadriyat sifatida jismoniy tarbiya ta'limi oliy talim muassasalari talabalari ehtiyojlarini qondirishga yordam berish, ularni shaxs sifatida rivojlantirishga va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishlariga yordam berishga qodir, shuningek jamiyatning ilmi, madaniyatli, insonparvarlikka yo'nalgan jismoniy tarbiya o'qituvchilariga bo'lgan ehtiyoj ta'minlashga qaratiladi[3].

Bugungi kunda jismoniy tarbiya ta'lim muassasalarida ijtimoiy sharoitlarning o'zgarishi, uning yangi talablari, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarni, ijtimoiy-madaniy va psixologik muhitni hisobga olib mutaxassislarni tayyorlash kerakligi ko'pchilik uchun ayondir. Buning uchun esa moslashuvchanlik, erkin

harakatlar va maksimal darajada, jamiyatning ijtimoiy talablarini oqilona to'ldirish kerak, ya'ni jismoniy tarbiya ta'limi uzluksiz pedagogik amaliyoti ko'p bosqichli tuzilishini muvofiqlashtirish g'oyasining o'zida qabul qilingan sharoitlar zarur.

Talabalarining uzluksiz pedagogik amaliyotlarini tashkil etish jarayonini tahlil qilish va sintez qilish, umumiy, abstrakt qoidalarni aniqlashtirish va aniq ma'lumotlardan chetlanish, xususiyan umumiylikni ko'ra bilish, umumiylik turli darajalari bilimlarini yagona tizimga muvofiqlashtirish, o'zlashtirilgan bilimlarini vazifa talablariga muvofiq moslashtirish, bir hodisa yoki hodisani bilimlar turli tizimlari nuqtai nazaridan tushunib yetish qobiliyatini nazarda tutuvchi bilimlarni amaliyotda qo'llash murakkab tahliliy-sintetik jarayondir.

Uzluksiz pedagogik amaliyot jarayonida amalga oshirilgan kuzatuv-tahliliy ishlar natijalari talabalarni nazariy bilimlarini kuchaytirish, pedagogik malakalarini shakllantirish, pedagogik fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asoslariga o'rgatish lozimligini ko'rsatdi[1]. Bu borada mahalliy ilmiy manbalar, amaliyotdagi holat tahlillari bilan bir qatorda xorijiy manbalarning tanqidiy taxlillaridan ham oqilona foydalanish lozim.

Ko'pchilik tadqiqotchilar uzluksiz pedagogik amaliyotni pedagogik ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining bir qismi, kasbiy malaka va ko'nikmalarni egallash vositasi hamda pedagogik fikrlashni rivojlantirish, nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llash vositasi sifatida, o'qitish ilmiy metodlari va pedagogik tajribani egallash vositasi sifatida qaraydilar.

Yevropaning ayrim mamlakatlarida, xususan, Polsha, Chexiya, Gollandiya, Germaniya kabi mamlakatlar pedagogik o'quv muassasalarida o'quv mashg'ulotlarining ma'lum bosqichlarida sohaning amaliyotlariga oid videolari bilan mikrota'lim va telelavhalar keng qo'llaniladi.

Shvesiya, Germaniya, AQSh kabi mamlakatlar universitetlarida jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha mavjud amaliyotni tahlil etar ekan, V.K.Balesevich umumfan tayyorgarlik amaliyoti mavjud bo'lganligi, uning asosida umumpedagogik tayyorgarliklar, bo'lajak o'qituvchilarni dars o'qitish metodikasi va amaliy malakalar bilan qurollantirish amalga oshirilganligini ta'kidlab o'tgan.

Bu mamlakatlarda shu bilan birga pedagogni umumpedagogik tayyorgarligi mazmuni o'ziga xos xususiyatlari, birinchidan, pedagogik nazariyani o'rganish ahamiyatini yetarlicha baholamaslik, aksincha, ularni amaliy tayyorlash ahamiyatini ortiqcha baholash; ikkinchidan, ta'lim olishning barcha bosqichlari davomida talabalarining individualligidan kelib chiqqan holda ta'lim mazmunini differentsiyalash kabi muhim pedagogik omillarga yetarli e'tibor qaratilmagan. Shuningdek, o'quv muassasalari o'quv rejaları va dasturlarida farq bo'lib har bir ta'lim muassasasi pedagogni kasbiy tayyorlash mazmunini o'zi belgilaydi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda ularning pedagogik amaliyotini nazariy bilimlar bilan hamohanglikda tashkil etish bo'yicha AQSh tajribasining o'ziga xos jihati shundaki, pedagogik darslarning turli-tumanliligi ko'p fanlilikka olib keladi natijada kurslarning tarqoqligi, qator mavzularning takrorlanishi kuzatiladi. Ushbu kurslar mazmunida amaliy material nazariy materialdan ustunlik qiladi. Umumpedagogik tayyorgarlik tizimida nazariy tayyorgarlik darajasining pasayishi hisobiga pedagogik mahoratga amaliy o'qitishga katta o'rin ajratilgan. Nazariy mashg'ulotlar soni yetishmasligi holatida ko'plab praktikumlar va amaliy seminarlar ko'zda tutilgan.

Yuqoridan xulosa qilib mamlakatlarning uzluksiz pedagogik amaliyot davomiyligini nazarda tutgan holda bugungi kunda oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarining uzluksiz pedagogik amaliyotini tashkil etilsa, talabalarni bo'lajak

kasbiy faoliyatgatayyorlash mexanizmi takomillashlagn bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Богданова Н.А. Подготовка студентов педагогического колледжа к эстетико-физическому воспитанию школьников: Автореф.дис. ... канд.пед наук.-Петрозаводск,1999.-17с.
2. Бондаревский Е.Я. педагогические основы контроля за физической подготовленностью учащейся молодежи: Автореф. дис. ... д-ра пед.наук.-М.: 1993.-45с.
3. Быков Ю. Теоретические и методические аспекты формирования профессионала-педагога в период обучения в физкультурном вузе// Теория и практика физ.культуры.-Москва, 2006.-И12.-С.67.

